



O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Suyunova Marjona

Jizzax davlat pedagogika universiteti 2 kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida o'quvchilarning nutqini o'stirish, savod o'rgatish darslari mazmuni, o'quvchilarni nutqini metodlar orqali nutqiy faoliyatini o'stirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Savod o'rgatish metodikasi, o'quvchilarni nutqini o'stirish, og'zaki vayozma nutq, unli, undosh harflar, tovushlar.*

Inson nutqi aloqa vositasi sifatida shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yetakchi shakli hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, faqat aniq nutq tufayli inson hozirgi paytda bo'lgan mukammal shaklga erishdi. Bundan tashqari, uzoq ming yillik evolyutsiyada ko'plab foydali ko'nikmalar va ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon bergan mehnat faoliyati bilan bir qatorda, izchil, mazmunli nutq insoniyatga bir-biri bilan aloqa qilish kabi muhim funktsiyani amalga oshirish imkoniyatini berdi. Nutq, til va nutq faoliyati tushunchalarining tarkibiy munosabatlarini yaxshiroq tushunish uchun ushbu hodisalarni ma'lum bir tarzda ajratish kerak. Nutq o'zining asl namoyon bo'lishida nafaqat odamlarga murojaat qilish shakli, balki ma'lum nutq ma'lumotlarini bir kishidan boshqasiga etkazish vositasidir.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda elementar o'qish va yozish, hisoblash, tabiat bilan yaqindan tanishish, o'zligini anglash kabi ijtimoiy hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo'ladilar.

«Kelajak yuksak intellektual salohiyat, bilim va kuchga ega bo'lgan yoshlarniki, millatnikidir»¹, -deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A. Karimov. Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlatlari yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan, kerak bo'lsa, ulardan o'z ustunligi bilan ajralib turishini ta'minlashning yagona yo'li ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishdan iboratdir. Mamlakatimizda umuman ta'limga, jumladan boshlang'ich ta'limiga bo'lgan buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi davlatidir. Hukumat o'z fuqarolari mushtarak manfaatlaridan kelib chiqqan holda ta'limining har bir alohida olingan bosqichida o'qitiladigan barcha predmetlar zimmasiga qator didaktik, ijtimoiy-siyosiy vazifalarni yuklaydi. Boshlang'ich ta'limi mazmunining ana shunday asosiy maqsadlari sirasiga o'quvchilarni mustaqil o'qishga o'rgatish, dunyoqarashini boyitish, mustaqil va ijodiy ishlash kabilarni kiritish mumkin. O'quvchilarda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qib o'rganilayotgan fan asoslarini

¹ Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat. 2008. 84-bet.



mukammal egallashlari uchun ularni, birinchi navbatda, mustaqil fikrlash, mushohada yuritish ko`nikma va malakalari bilan qurollantirishimiz lozim.

Boshlang`ich sinf bosqichida o`quvchilarni mustaqil o`qishga o`rgatishda sinfdan tashqari o`qish darslari muhim ta`limiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham yangi tahrirdagi DTSning tushuntirish xatida «Ona tili ta`lim sohasiga nafaqat o`quv predmeti, balki butun ta`lim tizimini uyushtiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qarash»² lozirligi uqtiriladi. Davlat dasturi talablariga ko`ra boshlang`ich sinfdan o`quvchilar savod o`rgatish davridan mustaqil o`qishga jalb qilinadi. Savod o`rgatish davrida haftada bir marta, 1-2-sinflarda ham haftada bir marta, 3-4-sinflarga ikki haftada bir marta sinfdan tashqari o`qish darslari rejalashtiriladi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov 1997-yilda bo`lib o`tgan tarixiy 9-sessiyada «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ahamiyati va mohiyati xususida fikr yuritish chog`ida «Bilim olish o`z yo`liga, lekin o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish pedagogning eng muhim va birinchi darajadagi vazifasi bo`lishi lozim» deb ta`kidlaganliklari har bir pedagog uchun dasturulamal bo`lib xizmat qilishi lozim.

Komil insonni tarbiyalashda boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan o`quv fanlari orasida o`qish darslari salmoqli o`rinni egallaydi. Negaki, uning zaminida savodxonlik va axloqiy – ta`limiy tarbiya asoslari turadi.

Bola maktabga kelgach avval o`qish, yozishni o`rganadi. Asta-sekin unga mustaqil kitob tanlay olish, o`qigan kitobini to`g`ri baholay olish kabi ko`nikmalar ham shakllantirib boriladi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning bosh yo`nalishini mustaqil fikrga ega bo`lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni tashkil etadi. Badiiy adabiyotlarni mutoala qilish o`quvchilarda mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritishga o`rgatadi.

Sinfdan tashqari o`qishning jahon ta`limidagi ilg`or usullar asosida yaratilgan tizimi o`quvchilarni o`qishga qiziqtirish, ularning fikrlash qobiliyatini o`stirish, kitob bilan ishlash usullarini o`rgatish, og`zaki nutqini o`stirish, muntazam ravishda kitob o`qib borishga rag`bat uyg`otish – ma`naviy madaniyatini yuksaltira borish kelajak avlodni o`qitish va tarbiyalash jarayonidagi asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu masalalarni ijobiy hal etish uchun biz sinfdan tashqari o`qish darslarini tashkil etishning qulay usullarini aniqlashimiz va amaliyotga tadbiiq qilishimiz zarur. Ammo shunisi e`tiborga loyiqki, R.Mallayev, M.Qodirova, O.Roziqov, T. Niyozmetovlarning ilmiy ishlarida o`quvchilarda mustaqil o`qish ko`nikmalarini shakllantirish omili bo`lgan sinfdan tashqari o`qishga ta`limning o`ziga xos shakli emas, balki mustaqil ishlarning bir turi sifatida yondashilgan. Bunday yondashish ta`lim tizimining bugungi taraqqiyoti talablariga javob bermaydi.

² Boshlang`ich sinflar uchun yangi tahrirdagi DTS va o`quv dasturi. - T.: Boshlang`ich ta`lim. 2005. 5-soni. 11bet.



Husanoboyevaning “Adabiy ta`lim tizimida mustaqil fikrlash muammosi”³ ishlarida mustaqil ta`limning adabiyot o`qitishdagi, xususan, o`qish ta`limidagi o`rni va roli o`rganiladi. Lekin jamiyat rivojlanishi bilan bog`liq holda mustaqil o`qish uchun badiiy adabiyotlarning yaratilayotganligi aynan boshlang`ich sinflarda sinfdan tashqari o`qish darslari uchun yangi o`quv materiallarini tanlash va o`quvchilarning mustaqil o`qish ko`nikmalarini takomillashtirishni taqozo etadi.

“Boshqa sohalar qatori, - deb yozadi davlatimiz rahbari I.A.Karimov, - adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur... Chet el yozuvchilari bilan xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish masalasiga bugun yetarlicha ahamiyat bermayapmiz. Holbuki, biz ma`naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech qachon o`z qobig`imizga o`ralashib qolmasligimiz kerak”.⁴

Milliy istiqlol tufayli jamiyat hayotida ro`y berayotgan islohotlar badiiy ijodiyotga keng imkoniyatlar tug`dirayotgan “intellektual salohiyat, tafakkur va ma`naviyat asri” (I.A.Karimov) bo`lgan hozirgi davrda adabiyotlar o`rtasidagi aloqalar va adabiy ta`sirni o`rganish turli tillarga mansub so`z san`ati taraqqiyotida mushtarak xususiyatlarni aniqlash, yutuq va kamchiliklarni haqqoniy baholashda g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Avlodlar tarbiyasi bilan bog`liq o`zbek bolalar adabiyoti xalqimiz ma`naviy madaniyati va san`atining muhim qismini tashkil etadi. Shuningdek, boshqa xalqlar adabiyotini o`rganish kichik yoshdagi bolalarni dunyoviy adabiyot haqidagi tasavvurini boyitadi.

“Boshqa millatlarning ezgu orzularini hurmat qilgan va tan olgan holda, - deb yozadi mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov, - o`z milliy g`ururimizni yuksak darajaga ko`tarib, oldimizda turgan olijanob niyatlarimizga erishmog`imiz mumkin”.⁸

Shu jihatdan qaraganda, sinfdan tashqari o`qish istiqlol davri o`zbek va boshqa bolalar adabiyotining so`nggi yillardagi taraqqiyoti bilan bolalarning tanishish imkonini beradi.

Boshlang`ich sinf ona tili ta`limining mazmuni va o`quvchilar bilimiga qo`yilgan talablarda “Boshlang`ich ta`lim bolaning mantiqiy tafakkur qilish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o`z-o`zini anglash salohiyatini... moddiy borliq go`zalliklarini his eta olishga, go`zalik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o`ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o`rgatadi”, -deb ta`kidlanadi.⁵ Boshlang`ich sinflarning sinfdan tashqari o`qish darslarida ham badiiy asar matni ustida

³ Q. Husanoboyevaning “Adabiy ta`lim tizimida mustaqil fikrlash muammosi”

⁴ Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – T.: O`zbekiston, 2009. 32-bet.

⁵ Boshlang`ich ta`lim 7-maxsus son,-T: Sharq, 1999,47-b



umumiy tarzda bo`lsa ham, qisqa vaqt ajratib tahlil o`tkaziladi. Badiiy asar matni tahlilida uning tili ustida, badiiy vositalari ustida ishlash orqali, qiziqarli kitoblarni tavsiya qilish orqali o`quvchilarda kitob o`qishga qiziqish uyg`otiladi. Sinfdan tashqari o`qish darslari mustaqil kitobxonni tarbiyalashda muhim o`rin tutadi.

Xulosa: Bolaning nutqi til qonuniyatlariga to`g`ri amal qilish, mustqali o`qiy olishi, kattalar nutqini idrok etish va o`zining ijodiy faolligi natijasida rivojlanadi. Nutqni samaraliroq rivojlantirish maqsadida bolalarning tevarak-atrof obyektlari (kishilarning hayoti va mehnati, hayvonlar, o`simliklar olami, suv osti dunyosi) to`g`risidagi tasavvurlarini aniqlash va izchil, rejali tarzda kengaytira borish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o`rta ta`limning DTS o`quv dasturi.[1]
2. Q.Abdullayeva va boshqalar. "Savod o`rgatish metodikasi". "O"qituvchi" 1996.[2]
3. T.Jabborova. X.G`ulomova. G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari.[3]
4. Ona tili o`qitish metodikasi. Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari uchun darslik. S.matchanov, X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva,Sh.Sariyev.- Toshkent:Bayoz, 2022. – 304 bet. 241 bet.
5. <https://uz.scienceforming.com/>